









II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 58 582,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,5 % ga yetdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish (yanvar-sentabr oylarida)

	Ko'rsatkichlar	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
		2024- yil	2025- yil	
	I. YAHM	49 734,6	58 582,9	107,2
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	48 971,6	57 591,0	107,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	763,0	991,9	108,9
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	48 971,6	57 591,0	107,2
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 064,8	15 640,7	102,6
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 963,5	14 578,9	111,0
	sanoat	8 220,4	9 934,0	109,0
	qurilish	3 743,1	4 644,9	115,5
	Xizmatlar	22 943,3	27 371,4	108,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 002,6	10 944,4	109,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 656,5	3 460,3	116,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	11 284,2	12 966,7	104,9

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)
2024- yil yanvar-sentabr




Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)
2025- yil yanvar-sentabr



Yalpi hududiy mahsulotda 2025- yil yanvar-sentabr oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 638 221,7 mlrd so‘mni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 41 918,0 mlrd so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida 552 147,9 mlrd so‘mni, Namangan viloyatida esa 35 963,5 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2025- yil yanvar-sentabr oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 51,5 % (2024- yil yanvar-sentabr 53,4 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 72,8 % (2024- yil yanvar-sentabr 73,4%) ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,8 % ni tashkil qildi (2024- yilning yanvar-sentabr oyida – 73,4 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi (ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2024- yil yanvar-sentabr	2025- yil yanvar-sentabr
Yanvar-sentabr	16 091,7	18 571,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish
(2025- yil yanvar-sentabr)

Ko'rsatkichlar	mlrd so'm		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O'zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	1 303 702,1	58 582,9	4,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 239 893,6	57 591,0	4,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	63 808,5	991,9	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	1 239 893,6	57 591,0	4,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	211 035,3	15 640,7	7,4
Sanoat (qurilish sohasini qo'shgan holda)	416 678,7	14 578,9	3,5
sanoat	323 805,7	9 934,0	3,1
qurilish	92 873,0	4 644,9	5,0
Xizmatlar	612 179,6	27 371,4	4,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	140 121,1	10 944,4	7,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	105 029,0	3 460,3	3,3
boshqa xizmatlar	367 029,5	12 966,7	3,5

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,2 %), sanoatda – 109,0 % (17,2 %), qurilishda – 115,5 % (8,1 %), xizmatlar sohasida – 108,0 % ni (47,5 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,1 % (19,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,8 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,9 % dan (22,5 %) iborat bo'ldi.

2024-2025- yil yanvar-sentabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

